

MINTAQALARDA SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY OMILLARI

Hamidova Madina Tolib qizi

Buxoro davlat universiteti
stajyor o'qituvchi, magistrant

E-mail: madinahamidova1206@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqalardagi sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari tahlil qilindi. Tadqiqotda raqobatbardoshlikning nazariy yondashuvlari, sanoat korxonalari faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar hamda hududiy rivojlanish xususiyatlari o'rganildi. Tizimli yondashuv, omilli tahlil, taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, boshqaruv sifati, infratuzilma ta'minoti va eksport salohiyati korxonalar raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar ekanini ko'rsatdi. Shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish sanoat korxonalarining uzoq muddatli raqobat ustunligini kuchaytirgani asoslandi. Tadqiqot yakunida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: raqobatbardoshlik, sanoat korxonalari, hududiy rivojlanish, ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, infratuzilma, eksport salohiyati, raqamli boshqaruv.

Аннотация

В статье проанализированы организационно-экономические факторы повышения конкурентоспособности промышленных предприятий регионов. В исследовании рассмотрены теоретические подходы к конкурентоспособности, внутренние и внешние факторы деятельности промышленных предприятий, а также особенности регионального развития. Используются методы системного подхода, факторного анализа, сравнения и логического обобщения. Результаты показали, что производственная эффективность, финансовая устойчивость, качество управления, уровень инфраструктуры и экспортный потенциал являются основными факторами конкурентоспособности предприятий. Также обосновано, что внедрение цифровых систем управления и инновационных технологий усилило долгосрочные конкурентные преимущества промышленных предприятий. По итогам исследования разработаны научно-практические рекомендации по повышению эффективности деятельности промышленных предприятий.

Ключевые слова: конкурентоспособность, промышленные предприятия, региональное развитие, производственная эффективность, финансовая устойчивость, инфраструктура, экспортный потенциал, цифровое управление.

Abstract

This article analyzed the organizational and economic factors of increasing the competitiveness of industrial enterprises in the regions. The study examined theoretical

approaches to competitiveness, internal and external factors affecting industrial enterprises, and features of regional development. Systematic approach, factor analysis, comparison, and logical generalization methods were applied. The results showed that production efficiency, financial stability, management quality, infrastructure provision, and export potential were the main determinants of enterprise competitiveness. The study also confirmed that the introduction of digital management systems and innovative technologies strengthened the long-term competitive advantages of industrial enterprises. Based on the findings, scientific and practical recommendations for improving the efficiency and competitiveness of industrial enterprises were developed.

Keywords: competitiveness, industrial enterprises, regional development, production efficiency, financial stability, infrastructure, export potential, digital management.

KIRISH

Mamlakatda iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta’minlashda sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat korxonalari real sektorning yetakchi tarkibiy qismi sifatida bandlikni oshirish, hududlarda qo‘shilgan qiymat yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda iqtisodiyotning umumiy rivojlanish sur‘atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi [1]. Shu bois sanoat korxonalari raqobatbardoshligini kuchaytirish alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini oshirish bilangina cheklanmay, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda ham muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi [2].

Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida raqobatbardoshlik mazmuni tobora kengayib bormoqda. Agar avval korxonaning raqobat ustunligi asosan mahsulot narxi va ishlab chiqarish hajmi orqali baholangan bo‘lsa, bugungi kunda mahsulot sifati, innovatsion faollik, boshqaruvning moslashuvchanligi, resurslardan samarali foydalanish, logistika tizimining rivojlanganligi hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ham muhim ko‘rsatkichlar sifatida qaralmoqda [3]. Mintaqaviy sanoat korxonalari faoliyatida esa raqobatbardoshlik hududiy infratuzilma darajasi, investitsion muhit, mehnat resurslari salohiyati, xomashyo ta’minoti va institutsional sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi [4].

O‘zbekiston mintaqalarida sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi hududlar kesimida turlicha shakllangan. Ba’zi viloyatlarda ishlab chiqarish salohiyati, transport-logistika imkoniyatlari, energetika ta’minoti va investitsiya jalb qilish darajasi nisbatan yuqori bo‘lsa, ayrim hududlarda mazkur omillar yetarli darajada rivojlanmagan [5]. Natijada sanoat korxonalarining raqobatbardoshlik imkoniyatlarida hududiy farqlar yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan, raqobatbardoshlikni oshirish masalasini faqat korxonaning ichki resurslari doirasida emas, balki mintaqaviy iqtisodiy sharoit, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va bozor talabining o‘zgarishi bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur maqolada mintaqaviy sanoat korxonalari raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillarni o‘rganish, ularni mazmunan guruhlash

hamda sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqobatbardoshlik iqtisodiyot fanida muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Xorijiy tadqiqotchilar mazkur tushunchani ko‘proq korxonaning bozor muhitida qo‘shimcha qiymat yaratish salohiyati, xarajatlarni samarali boshqarish imkoniyati, strategik qarorlar qabul qilish qobiliyati hamda iste‘molchilar ehtiyojiga moslashish darajasi bilan izohlaydilar [6]. M. Porter raqobat ustunligini korxonaning xaridor uchun yuqori qiymat yaratishi yoki mahsulotni raqobatchilarga nisbatan pastroq xarajat bilan ishlab chiqarishi orqali izohlaydi¹. Mazkur yondashuv sanoat korxonalari faoliyatida alohida ahamiyatga ega, chunki ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot tannarxi darajasi korxonaning bozordagi raqobat pozitsiyasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Ayrim tadqiqotchilar raqobatbardoshlikni korxonada faoliyatining faqat yakuniy iqtisodiy natijasi sifatida emas, balki uning ichki resurslari, boshqaruv tizimi, moliyaviy imkoniyatlari va tashqi muhit o‘zgarishlariga moslasha olish salohiyati bilan bog‘liq ko‘p qirrali jarayon sifatida izohlaydilar [7]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, raqobatbardoshlik mahsulot sifati, innovatsion salohiyat, marketing faoliyati, inson kapitali hamda korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanish imkoniyatlarini qamrab oladi [8].

Mahalliy iqtisodiy tadqiqotlarda sanoat korxonalari raqobatbardoshligi ko‘pincha hududiy taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, xomashyo ta‘minoti, mehnat unumdorligi va eksport imkoniyatlari bilan bog‘liq holda yoritiladi. Xususan, mintaqaviy sanoat rivojlanishi sharoitida korxonaning raqobat ustunliklari faqat ichki boshqaruv salohiyati bilan emas, balki tashqi iqtisodiy muhit, bozor sharoitlari va hududiy infratuzilma imkoniyatlari bilan ham belgilanadi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan yondashuvlarni umumlashtirish sanoat korxonasi raqobatbardoshligi bir nechta omillar ta‘sirida shakllanadigan murakkab iqtisodiy tushuncha ekanini ko‘rsatadi. Shu bois uni baholashda ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy holat, innovatsion salohiyat, tashkiliy-boshqaruv tizimi, infratuzilma imkoniyatlari hamda bozor muhiti o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi lozim [9].

METODOLOGIYA

Maqolada sanoat korxonalari raqobatbardoshligini o‘rganishda tizimli yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuv korxonada faoliyatiga ta‘sir etuvchi omillarni yakka holda emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘langan iqtisodiy jarayonlar tizimi sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, taqqoslash, omilli tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ilmiy abstraksiyalash usuli raqobatbardoshlik tushunchasining iqtisodiy mazmunini yoritishga xizmat qildi.

¹ Porter M. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.

Tahlil va sintez usullari orqali sanoat korxonalari faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar guruhlashtirildi. Taqqoslash usuli yordamida mintaqalar sanoat rivojlanishidagi farqli jihatlar aniqlashtirildi. Omilli tahlil asosida ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, infratuzilma ta'minoti va eksport salohiyatining korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri baholandi. Mantiqiy umumlashtirish usuli esa sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga doir ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi [10].

Maqolada sanoat korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mazmuniga ko'ra ikki asosiy yo'nalishda ko'rib chiqildi. Birinchi yo'nalish korxonaning ichki imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni, boshqaruv tizimi, moliyaviy holat va resurslardan foydalanish samaradorligini qamrab oladi. Ikkinchi yo'nalish esa tashqi muhit omillarini ifodalaydi va unga hududiy infratuzilma, bozor talabi, raqobat muhiti hamda institutsional sharoitlar kiradi [11].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari sanoat korxonalari raqobatbardoshligini shakllantirishda ichki omillarning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Xususan, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, texnologik jihozlanish, mahsulot sifati, tannarx ko'rsatkichlari, mehnat unumdorligi, xodimlar malakasi, boshqaruv tizimining samaradorligi va moliyaviy barqarorlik korxonaning bozordagi raqobat mavqeyini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval.

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar¹

Omillar guruhi	Asosiy ko'rsatkichlar	Raqobatbardoshlikka ta'siri
Ishlab chiqarish omillari	Quvvatlardan foydalanish, texnologik jihozlanish, mahsulot sifati	Mahsulot hajmi va sifatini oshiradi
Moliyaviy omillar	Rentabellik, likvidlik, qarzdorlik, aylanma mablag'lar	Investitsion faollik va barqarorlikni ta'minlaydi
Tashkiliy-boshqaruv omillari	Menejment sifati, xodimlar malakasi, raqamli boshqaruv	Qaror qabul qilish tezligi va samaradorligini oshiradi
Hududiy omillar	Infratuzilma, transport-logistika, energetika ta'minoti	Xarajatlarni kamaytiradi va bozorga chiqishni yengillashtiradi
Bozor omillari	Talab, raqobat muhiti, eksport imkoniyati	Sotish hajmi va bozor ulushini oshiradi

Ishlab chiqarish quvvati sanoat korxonasining bozor ehtiyojlariga javob berish salohiyatini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir. Biroq yuqori ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishning o'zi korxonalar raqobatbardoshligini kafolatlamaydi. Mavjud quvvatlardan oqilona foydalanilmasa, texnik va mehnat resurslari yetarli iqtisodiy samaraga aylanishi qiyin [12]. Shu bois korxonalar faoliyatini baholashda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, uskunalarning texnik holati, ishlab

¹ Muallif ishlanmasi

chiqarish jarayonlarining barqarorligi hamda mehnat unumdorligi o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi lozim.

Mahsulot tannarxi sanoat korxonasi bozordagi raqobat imkoniyatlarini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Tannarx darajasining yuqori bo‘lishi korxonaning narx siyosatini moslashuvchan yuritishga to‘sqinlik qiladi, foydalilik darajasini pasaytiradi hamda yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli xomashyo va materiallardan oqilona foydalanish, energiya sarfini kamaytiruvchi texnologiyalarni joriy etish, samarasiz xarajatlarni qisqartirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Moliyaviy barqarorlik sanoat korxonasi bozordagi raqobatbardoshligini ta‘minlovchi muhim ichki omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Moliyaviy imkoniyatlari yetarli bo‘lgan korxonalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, mahsulot turini kengaytirish, marketing faoliyatini rivojlantirish va tashqi bozorlarga chiqish bo‘yicha faolroq harakat qila oladi. Aksincha, qarzdorlik yukining ortishi, debitorlik qarzlarning ko‘payishi va likvidlik darajasining pasayishi korxonaning investitsion faolligi hamda bozordagi raqobat mavqeyiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Tashqi muhit omillari tarkibida hududiy infratuzilmaning rivojlanganligi, investitsiya jalb qilish sharoitlari, bozor talabi, transport-logistika tizimi hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari alohida ahamiyat kasb etadi. Agar sanoat korxonasi infratuzilmaviy imkoniyatlari yuqori bo‘lgan hududda joylashgan bo‘lsa, xomashyo va materiallarni yetkazib berish, tayyor mahsulotni sotish hamda tashqi bozorlarga olib chiqish jarayonlari nisbatan samarali tashkil etiladi. Natijada korxonaning ishlab chiqarish va realizatsiya xarajatlari kamayib, mahsulotni iste‘molchiga yetkazish tezligi va bozordagi raqobatbardoshligi oshadi.

Davlat iqtisodiy siyosati sanoat korxonalarini faoliyat yuritadigan tashqi muhitni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Soliq va bojxona imtiyozlari, imtiyozli kreditlash mexanizmlari, sanoat zonalarini rivojlantirish, eksport faoliyatini rag‘batlantirish hamda infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish korxonalar uchun qo‘shimcha iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi [13]. Xususan, mintaqaviy sanoat subyektlari uchun davlat tomonidan yaratiladigan bunday shart-sharoitlar ishlab chiqarish barqarorligini ta‘minlash, investitsion faollikni kuchaytirish va raqobatbardoshlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Sanoat korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi ichki imkoniyatlar va tashqi muhit omillarining o‘zaro ta‘siri asosida shakllanadi. Ichki omillar korxonalar tomonidan boshqarilishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish, moliyaviy, texnologik va tashkiliy resurslarni ifodalasa, tashqi omillar bozor sharoiti, hududiy infratuzilma, investitsion muhit va davlat siyosati bilan bog‘liqdir. Shu bois raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar alohida yo‘nalishlar bilan cheklanmasdan, korxonaning ichki salohiyati va tashqi iqtisodiy sharoitlarni uyg‘unlashtirgan kompleks strategiya asosida ishlab chiqilishi lozim.

Mintaqaviy sanoat taraqqiyotida hududlar o'rtasidagi mavjud nomutanosibliklarni qisqartirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sanoat salohiyati nisbatan yuqori shakllangan hududlarda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, eksport faoliyatini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi mumkin. Sanoat infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan mintaqalarda esa avvalo transport, energetika, logistika hamda ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish zarur [14].

Korxonalar miqyosida raqobatbardoshlikni kuchaytirishda xarajatlarni samarali boshqarish muhim o'rin tutadi. Ba'zi sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmi yetarlicha yuqori bo'lishiga qaramay, mahsulot tannarxi va operatsion xarajatlarning ortiqchiligi yakuniy moliyaviy natijalarning past shakllanishiga sabab bo'ladi. Bunday sharoitda faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish kutilgan samarani bermasligi mumkin. Shu bois xarajatlar tarkibini chuqur tahlil qilish, ortiqcha va samarasiz sarflarni kamaytirish, aylanma mablag'lar aylanishini jadallashtirish hamda rentabellik darajasini oshirishga qaratilgan boshqaruv choralarini kuchaytirish zarur.

Raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim yo'nalishlaridan biri sanoat korxonalarining eksport imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq. Ichki bozor imkoniyatlari cheklangan sharoitda tashqi bozorlarga chiqish korxonalariga ishlab chiqarish hajmini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish hamda mahsulot sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish imkonini beradi. Shu maqsadda korxonalarda xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish, eksport marketingini rivojlantirish va tashqi bozorlardagi talab hamda raqobat sharoitlarini muntazam o'rganib borish zarur.

Bundan tashqari, sanoat korxonalarida raqamli boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish ham raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli monitoring, boshqaruv hisobi, elektron buyurtmalar tizimi va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish korxonalar xarajatlarini qisqartirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish imkonini beradi [15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqaviy sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi turli omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda korxonaning ichki imkoniyatlari bilan tashqi iqtisodiy muhit sharoitlari o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xususan, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, texnologik jihozlanish, mahsulot sifati, tannarx ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik, boshqaruv samaradorligi va mehnat unumdorligi korxonaning ichki raqobat salohiyatini belgilaydi. Hududiy infratuzilma, investitsion muhit, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari, bozor talabi va eksport imkoniyatlari esa tashqi omillar sifatida korxonaning bozordagi umumiy raqobat mavqeyiga ta'sir ko'rsatadi.

Maqolada amalga oshirilgan tahlillar asosida mintaqaviy sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Avvalo, sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini pasaytirish, xarajatlar tarkibini

muntazam tahlil qilish va resurslardan tejamkor foydalanishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun aylanma mablag'lar aylanishini jadallashtirish, debitorlik qarzlari hajmini kamaytirish va investitsiya resurslaridan maqsadli foydalanish zarur. Mintaqalar kesimida esa sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, transport-logistika, energetika va ishlab chiqarish infratuzilmasini takomillashtirish korxonalar faoliyati uchun qulay iqtisodiy muhit yaratadi. Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish, xalqaro standart va sertifikatlash tizimlarini joriy etish hamda tashqi bozorlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish sanoat korxonalarining raqobat imkoniyatlarini yanada oshiradi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlari va innovatsion faoliyatni kengaytirish uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mintaqaviy sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishda korxonaning ichki boshqaruv salohiyati, hududiy infratuzilma imkoniyatlari va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha statistik ma'lumotlar. <https://stat.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6633676>
3. Porter M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press, 1985.
4. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
5. Hamidova M.T. Mintaqalarda sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro, 2026.
6. Chikán A. National and Firm Competitiveness: A General Research Model. Competitiveness Review, 2008, Vol. 18, No. 1/2, pp. 20–28.
7. Buckley P.J., Pass C.L., Prescott K. Measures of International Competitiveness: A Critical Survey. Journal of Marketing Management, 1988, Vol. 4, No. 2, pp. 175–200.
8. Feurer R., Chaharbaghi K. Defining Competitiveness: A Holistic Approach. Management Decision, 1994, Vol. 32, No. 2, pp. 49–58.
9. Фатхутдинов Р.А. Конкуренентоспособность: экономика, стратегия, управление. Москва: ИНФРА-М, 2000.
10. Yavmutov D.Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot va sanoat rivojlanishining nazariy asoslari. Buxoro, 2023.

11. Barney J.B. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage. *Journal of Management*, 1991, Vol. 17, No. 1, pp. 99–120.
12. OECD. *Industrial Policy for Sustainable Growth*. Paris: OECD Publishing, 2021.
13. UNIDO. *Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Solutions*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2024.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-avgustdagi PQ-286-son “Sanoat sohasida xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-7059241>
15. World Economic Forum. *The Global Competitiveness Report 2019*. Geneva: World Economic Forum, 2019.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**